

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

### №5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026  
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umiddjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

АДАПТИВНОЕ БИЗНЕС-ПЛАНИРОВАНИЕ КАК ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	10
<b>Шарипов Конгратбай Авезимбетович, Исматуллаев Темур Равшан угли</b>	
STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIKA ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI .....	18
<b>Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna</b>	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА.....	26
<b>Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	35
<b>Габбарова Ильмира Володиевна</b>	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH.....	41
<b>Amirov Shavkat Rahmatullayevich</b>	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ .....	48
<b>Усманова Азиза Баходировна</b>	
PEREGONDAGI HARAkatNI BOSHqARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSessorLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIqISH.....	53
<b>Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li</b>	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	62
<b>Alimova Dilafro'z Tohir qizii</b>	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....	68
<b>Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi</b>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR.....	67
<b>Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	74
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi</b>	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	82
<b>Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li</b>	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHqARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI.....	89
<b>Muxtorova Shaxlo Farxodovna</b>	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH.....	101
<b>Qo'ziboyev Behzod Hamidovich</b>	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY .....	106
<b>Sultanova Kamila Mukhtorali kizi</b>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH .....	111
<b>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</b>	



MHXS STANDARTLARIGA O‘TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR .....	117
<b>Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna</b>	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO‘P O‘LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI .....	123
<b>Turdikulova Moxira Maxmasharifovna</b>	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIVAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI .....	127
<b>Kaxorova Zamira Safaraliyevna</b>	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO‘Y BERISHI MUMKIN BO‘LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI .....	132
<b>Dehqonov Oyatillo Mansurbek o‘g‘li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich</b>	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH... .....	143
<b>Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg‘ashova Madina, Jo‘rayev Muhiddin</b>	
JAHON MOLIVAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	147
<b>Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.</b>	
KORXONALARDA “TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH” KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI .....	151
<b>Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich</b>	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO‘LLARI.....	156
<b>Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna</b>	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH .....	161
<b>Yusupova Feruza Yo‘ldoshevna</b>	
AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O‘RNI .....	166
<b>Irgashev Anvar Farxodovich</b>	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	173
<b>Raxmankulov Sherzod Shokirovich</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР .....	178
<b>Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы</b>	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI .....	184
<b>O‘tbosarov Abrorbek Adxamjon o‘g‘li</b>	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	189
<b>Xamidova Zarifa Urol qizi</b>	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI .....	196
<b>Ro‘zmetov Mansur</b>	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	200
<b>Shaydulova Marjona Alisher qizi</b>	
KORXONALARNING MOLIVAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIVAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	205
<b>Rizoyev Farrux Hikmatilloevich</b>	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	210
<b>Turaboev Ibroxim Ismoil o‘g‘li</b>	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG‘DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	215
<b>Komilova Nodira Abdirahmon qizi</b>	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ .....	225
<b>Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович</b> ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ .....	231
<b>Тожалиев Шохрух Талип ўғли</b> GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING .....	236
<b>Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna</b> O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH .....	241
<b>Azlarova Aziza Axrorovna</b> AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI .....	248
<b>Marufxanov Davron Hasanovich</b> O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI .....	255
<b>Isakjanova Saboxat Muhamedovna</b> MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI .....	263
<b>Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna</b> DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNI JORIY ETISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI .....	268
<b>Anvar Deberdiyev</b> RAQAMLI XIZMATLARNING O'ZBEKISTON TASHQI SAVDO BALANSIDAGI O'RNI .....	272
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna, Normurodova Zuhra Orzimurod qizi</b> TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI .....	278
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b> IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILiyATIGA YANGICHA YONDASHUV .....	283
<b>Tadjiev Bexzod Umidjanovich</b> OTMNI MOLIYAVIY TA'MINLASHNING INNOVATSION MOLIYAVIY MODELARI .....	290
<b>Tuxliyev Bozor Karimovich</b> TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	293
<b>Abirova Nargizabonu</b> TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	298
<b>Ro'ziyeva Maftuna Yusufovna</b> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR DINAMIKASINING EMPIRIK TAHLILI .....	303
<b>Sharipova Shahlo Istamovna</b> METROLOGIYANING ILMIY-METODIK ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....	308
<b>Maxmudov Dostonbek Soyibjon o'g'li</b> SANOAT KORXONALARIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	312
<b>Mirzakulova Risolat Musurmankulovna</b> O'ZBEKISTONDA RAQAMLI DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI .....	317
<b>Ibragimova Saodat, Mirhamidova Dilorom, Shagaipova Gulchehra</b>	



OLIY TA'LIM BITIRUVCHILARI SONINING JISMONIY SHAXSLAR DAROMAD SOLIG'IGA TA'SIRI VA INSON KAPITALI ORQALI IJTIMOYIY XARAJATLARNI BOSHQARISH.....	323
<b>Primova Nigora Ikrom qizi</b>	
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALARNING ROLI: YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA STRATEGIK YONDASHUVLAR .....	331
<b>Raxmankulov Sherzod Shokirovich</b>	
ELEKTRON TIJORAT BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONALARDA MIJOZLAR QONIQLASH DARAJASI..	337
<b>Aripov Ulug'bek Bahodirovich</b>	
KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	341
<b>Xakimov Akbar Anvarovich</b>	
FOTOELEKTRIK TIZIM SAMARADORLIGIGA HARORAT, SOYALANISH VA DEGRADATSIYA OMILLARINING TA'SIRI.....	344
<b>Majidova Maxliyo A'zam qizi</b>	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	354
<b>Komilova Nodira Abdirahmon qizi</b>	
STUDY OF THE INFLUENCE OF MEMBRANE REACTOR ON METHANE CONVERSION WITH WATER VAPOR AND CARBON OXIDE (IV).....	362
<b>Umida Shabarova, Sugdiyana Abdurasulova</b>	
ESG MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN: EVALUATION PRACTICES, KEY DETERMINANTS, AND STRATEGIC PRIORITIES.....	367
<b>Sanemkhan Abdullaeva</b>	
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI .....	375
<b>Boymirzayev Doniyorbek Anvarjon o'g'li</b>	
PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRADIGAN PLATFORMA ISHLAB CHIQLASH .....	379
<b>Salomov Shokirjon, Boboyev Shavkat, Normamatov Xayridin</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ОГНЕСТОЙКОСТИ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ ВТОРИЧНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА.....	386
<b>Назаров Феруз, Назаров Фарход, Ахмедова Фазилат, Элмуродов Элгез, Янгибоев Асадбек</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	391
<b>Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Rasulov Akmal Xurshid o'g'li</b>	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	397
<b>Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi</b>	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI .....	403
<b>Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna</b>	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	407
<b>Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi</b>	
XORAZM VILOYATINING IQTISODIY SALOHİYATI VA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TARKIBI HAMDA JORIY HOLATI .....	411
<b>Karimova Shaxnoza O'ktamovna</b>	
TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	418
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH .....	423
<b>Xalimov Shaxboz Xalimovich</b>	
AKTIVLAR QADRSIZLANISHI XARAJATLARINING MOLIYAVIY VA SOLIQ HISOBOTLARIGA TA'SIRI.....	427
<b>Jarimbetov Ajiniyaz Kurbanbaevich</b>	



MUHANDISLIK GEOMETRIYASI VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA MULTIMEDIA VA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM NATIJALARIGA TA'SIRI: AUDIO VA VIDEOTEKNOLOGIYALAR IXTISOSLIGI MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT.....	430
<b>Utkirova Mamura Faxriddin qizi</b>	
HUDUDIY TADBIRKORLIK TIZIMIDA INVESTITSION RESURSLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL VA EKONOMETRIK YONDASHUVLARI .....	436
<b>Isakov Axmadali Esanbayevich</b>	
MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA INVESTITSION RESURLARNING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH .....	444
<b>Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li</b>	
XABAR ALMASHISHGA ASOSLANGAN MARKETINGDA ISTE'MOLCHILARNING SHAXSIY HAYOTINI KUTILMALARI .....	452
<b>Raxmatova Sitora Shuxratjon qizi</b>	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI OPTIMALLASHTIRISH VA SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SEKTORINI INSTITUTSIONAL ISLOH QILISHNING QIYOSIY TAHLILI.....	461
<b>Sharapov Umidjon Shavkatovich</b>	
ZAMONAVIY SERVIS KOMPANIYALAR TANNARXINI ANIQLASHNING DOLZARB YO'NALISHLARI .....	471
<b>Berdiyeva Dilfuza Axatovna</b>	
NAVOIY VILOYATINING TURISTIK OBYEKT LARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI TAHLILI .....	477
<b>Turayev Abduvoxiid Kuldashevich</b>	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	483
<b>Alimova Dilafro'z Tohir qizi</b>	



# INVESTITSİYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

**Alimova Dilafro‘z Tohir qizi**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Yangiyer filiali o‘qituvchisi

ORCID: 0000-0001-9017-9726

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada investitsiyalar hajmini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni kuchaytirish va mavjud to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan masalalar yoritiladi. Unda investitsiya muhitini yanada rivojlantirish, huquqiy va institutsional sharoitlarni takomillashtirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni kengaytirish bo‘yicha imkoniyatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, investitsiya jarayonlarini rag‘batlantirish, investorlar uchun yanada qulay va barqaror shart-sharoitlar yaratish hamda davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** investitsiyalar, investitsiya muhiti, investitsiya hajmi, iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy resurslar, institutsional muhit, huquqiy asoslar, investitsiya siyosati, davlat qo‘llab-quvvatlashi, investitsiya faolligi.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются перспективы увеличения объема инвестиций за счёт совершенствования внешних и внутренних условий. Анализируются возможности развития инвестиционной среды, укрепления правовой и институциональной базы, а также расширения доступа к финансовым ресурсам. Кроме того, предлагаются рекомендации, направленные на повышение инвестиционной активности, создание более благоприятных условий для инвесторов и дальнейшее совершенствование механизмов государственной поддержки.

**Ключевые слова:** инвестиции, инвестиционная среда, объём инвестиций, экономическое развитие, финансовые ресурсы, институциональная среда, правовая база, инвестиционная политика, государственная поддержка, инвестиционная активность.

**Abstract.** This article highlights opportunities to increase investment volume by enhancing both external and internal conditions. It examines the potential for improving the investment environment, strengthening legal and institutional frameworks, and expanding access to financial resources. In addition, the paper provides recommendations aimed at stimulating investment activity, creating more favorable conditions for investors, and further improving government support mechanisms.

**Keywords:** investments, investment environment, investment volume, economic development, financial resources, institutional environment, legal framework, investment policy, government support, investment activity.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda investitsiyalar iqtisodiy o‘shirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida yanada katta ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatlarning barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarish salohiyatining kengayishi, innovatsion jarayonlarning tezlashuvi hamda yangi ish o‘rinlarining yaratilishi investitsiya faolligining yuqori bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois investitsiyalar hajmini oshirish masalasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili bo‘lish bilan birga, ijtimoiy farovonlikni yuksaltirishga xizmat qiluvchi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

So‘nggi yillarda investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayon natijasida investitsiya oqimi o‘shirishga zamin yaratuvchi omillar mustahkamlanib borayotgan bo‘lsa-da, mavjud imkoniyatlarni yanada kengaytirish dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, huquqiy-me‘yoriy bazani yanada takomillashtirish, institutsional mexanizmlarning samaradorligini oshirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda hududlar o‘rtasida investitsiya jozibadorligini muvozanatlashtirish istiqbolli yo‘nalishlar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bunday sharoit investitsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish, mavjud imkoniyat va resurslarni chuqur tahlil qilish hamda investitsiya jarayonlarini kompleks takomillashtirishga

qaratilgan aniq chora-tadbirlarni belgilashni talab qiladi. Ayniqsa, investitsiya muhitining institutsional asoslarini mustahkamlash, investorlar uchun huquqiy kafolatlarni kuchaytirish, davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish va innovatsion loyihalarni rag'batlantirish ushbu jarayonning muhim vazifalaridan sanaladi.

Mazkur maqolaning maqsadi investitsiyalar hajmini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning iqtisodiy mazmunini ochib berish hamda investitsiya faoliyatini yanada jadallashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirishning ilmiy-amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlar J.Keyns, Klas Eklund, Uilyam Sharp, G.Aleksander, J.Beyli, Zvi Bodi, Aleks Keyn, Alan J.Markus, A.Damodaran, D.G.Luenberger, H.Yoshikawa, Y.F.Avdokushin, B.I.Alexin, V.A.Aleshin, A.I.Zotova, I.V.Nekrasova, A.N.Asaul, M.I.Lisitsa, L.I.Yuzvovich, S.A.Degtyarev, Y.G.Knyazeva, Sergeev I.V. hamda Verettenikova I.I. asarlarida keng yoritilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlar S.G'ulyamov, T.Malikov, N.Jumayev, N.Xaydarov, A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, J.Karimqulov, S.Elmirzayev, N.Qo'ziyeva, N.Oblomuradov, D.G'ozibekov, B.Mamatov, N.Karimov, B.Valiyev, U.Nadirxanov, G.Karimova, Q.Xoshimov, D.Rustamova, A.Qobilov va B.Tuxliyevlarning ilmiy ishlarida investitsiyalarni jalb qilish masalalari bevosita hamda bilvosita tadqiq etilgan.

Qayd etish joizki, har bir hudud, jumladan, Sirdaryo viloyati ham investitsiyalarni jalb qilish va investitsiya muhitini yanada rivojlantirish borasida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shu bois mazkur mavzuni hududning iqtisodiy salohiyati, geografik joylashuvi va investitsion imkoniyatlarini inobatga olgan holda chuqur tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, mantiqiy tafakkur, umumlashtirish, analiz va sintez, tizimli tahlil, statistik tahlil, ekonometrik tahlil hamda qiyosiy tahlil usullaridan samarali foydalanildi. Mazkur usullar orqali investitsiyalar hajmiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilib, ularning iqtisodiy mazmuni va amaliy ahamiyati kompleks tarzda tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqot davomida investitsiya jarayonlarini baholash, mavjud tendensiyalarni aniqlash hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda investorlarni yanada faol jalb qilish hamda investitsiya muhitini takomillashtirish maqsadida investorlar uchun keng imkoniyat va qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy-me'yoriy bazaning mustahkamlanishi, soliq va bojxona imtiyozlarining joriy etilishi, erkin iqtisodiy zonalar hamda kichik sanoat zonalarining tashkil etilishi investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirishni talab etuvchi ayrim masalalar ham mavjud. Jumladan, nafaqat Sirdaryo viloyatida, balki respublikaning boshqa hududlarida ham iqtisodiyotning ayrim tarmoqlar bo'yicha yuqori darajada ixtisoslashgani kuzatiladi. Sirdaryo viloyati hududi asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga moslashgan bo'lib, sug'oriladigan yerlarda beda, no'xat, mosh, kunjut, tariq, loviya, kungaboqar va boshqa ekinlar yetishtiriladi. Guliston va Xovos tumanlari sabzavot hamda poliz ekinlari yetishtiriladigan asosiy hududlar hisoblanadi. Viloyatda yetishtiriladigan qovun, tarvuz va piyoz mahsulotlari boshqa hududlarga ham eksport qilinmoqda [1].

Amaliyotda investorlar iqtisodiyotning yuqori daromad keltiruvchi hamda eksport salohiyati yuqori bo'lgan tarmoqlariga, jumladan, metallurgiya, neft-gaz sanoati, kimyo sanoati va boshqa ishlab chiqarish yo'nalishlariga investitsiya kiritishni afzal ko'radilar. Shu sababli potensial investorlar ko'pincha ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlangan, sanoat korxonalari faoliyat yuritayotgan hududlarni tanlaydilar.

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini hududlar kesimida muvozanatli joylashtirish hamda mavjud resurslardan samarali foydalanish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, foydalanilmayotgan yoki iqtisodiy samaradorligi past bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlarini iqtisodiy muomalaga jalb etish hududiy rivojlanish strategiyalarining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Sirdaryo viloyati respublikaning sanoatlashuv darajasi nisbatan rivojlanib borayotgan hududlaridan biri bo'lib, hududiy iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish, yangi ishlab chiqarish maydonlarini tashkil



etish hamda investitsiya muhitini yanada yaxshilash muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu bois viloyatda foydalanilmayotgan yer resurslari negizida kichik sanoat zonalarini tashkil etish hududiy investitsiyaviy salohiyatni oshirishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida baholanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Sirdaryo viloyatining ayrim tumanlarida hozirda yetarli darajada samarali foydalanilmayotgan, agrotexnik talablarga to'liq mos kelmaydigan yoki suv ta'minoti cheklangan yer maydonlari mavjud bo'lsa-da, ular katta iqtisodiy salohiyatga ega. Ayrim hududlarda bunday yerlar 1500–2000 gektargacha maydonni tashkil etib, ularni iqtisodiy faoliyatga jalb etish orqali yangi loyihalarni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Mazkur yerlarning transport kommunikatsiyalari va muhandislik infratuzilmasiga yaqin joylashgani esa sanoat obyektlarini joylashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda hududiy investitsion faollikni oshirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, viloyat hududida tashkil etilgan kichik sanoat zonalarini hududiy iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, kichik sanoat zonalarida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish jarayoni jadallashib, investitsiya hajmining 2–2,5 baravar oshishiga erishilgan. Shuningdek, Xitoy, Koreya va Turkiya kabi davlatlar investorlarining qiziqishi ortib, yangi korxonalar tashkil etilishi natijasida hududlarda bandlik darajasi oshgan hamda soliq bazasi kengaygan. Natijada hududiy infratuzilma — yo'l, energiya, suv ta'minoti va telekommunikatsiya tizimlari bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinmoqda [2].

Shu bilan birga, hududiy investitsiyaviy salohiyatni oshirishda mavjud yer resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi yashash hududlariga yaqin joylashgan, biroq iqtisodiy faoliyatga to'liq jalb etilmagan yer maydonlarini ishlab chiqarish faoliyatiga yo'naltirish hududiy iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Jumladan, Sayxunobod tumani geografik jihatdan vodiy va voha hududlarini bog'lovchi A–373 magistral yo'li bo'yida joylashgan bo'lib, ushbu transport-logistika imkoniyatlari hududda sanoat hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Shu bilan birga, hududdagi ayrim yer resurslarini iqtisodiy faoliyatga yanada kengroq jalb qilish imkoniyatlari mavjud.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Sayxunobod tumani "Farovon" mahallasida 20 gektar foydalanilmayotgan yer maydonlari mavjud bo'lib, mazkur yerlarni ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etish hududiy investitsiyaviy salohiyatni oshirishning muhim imkoniyatlaridan biri hisoblanadi [3].

Mazkur tadqiqotda hududiy investitsiyaviy salohiyatni oshirish maqsadida Sayxunobod tumani "Farovon" mahallasidagi 20 gektar foydalanilmayotgan yer maydonlari negizida kichik sanoat zonalarini barpo etish taklif etiladi.

Ushbu taklifni amaliyotga tatbiq etish natijasida bir qator ijobiy iqtisodiy samaralarga erishish mumkin.

Birinchidan, foydalanilmayotgan yer maydonlarini sanoat faoliyatiga jalb etish yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Iqtisodiy aylanmadan chetda qolgan 20 gektar yer maydoni ishlab chiqarish obyektlari joylashtiriladigan hududga aylantirilsa, mazkur yerlar iqtisodiy qiymat yaratish jarayoniga jalb etiladi. Natijada yer resurslarining iqtisodiy qaytimi ortib, ulardan foydalanish samaradorligini o'rtacha 30 foizga oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Ikkinchidan, kichik sanoat zonalarini tashkil etish hududga yangi investitsiya loyihalarini jalb qilish uchun qulay sharoit yaratadi. Mazkur hududda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini shakllantirish orqali kichik va o'rta biznes subyektlari uchun ishlab chiqarish maydonlari tashkil etiladi. Natijada yangi sanoat korxonalari barpo etilib, hududda ishlab chiqarish hajmi ortadi hamda yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Uchinchidan, kichik sanoat zonalarida faoliyat yurituvchi korxonalar tomonidan to'lanadigan yer solig'i, mol-mulk solig'i, foyda solig'i hamda boshqa majburiy to'lovlar hududning soliq bazasini kengaytiradi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, mazkur hududda kichik sanoat zonasi tashkil etilishi natijasida mahalliy byudjet daromadlarini o'rtacha 22 foizga oshirish imkoniyati mavjud.

Investitsiyalar hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biri hududlarda zamonaviy infratuzilmaning rivojlanishidir. Hududlardagi investitsion faollikni oshirishda sanoat zonalarining raqobatbardoshligi va investorlar uchun jozibador bo'lishi katta ahamiyatga ega. Sanoat zonalarini samarali faoliyat yuritishi uchun ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydigan rivojlangan muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, zamonaviy logistika infratuzilmasi, barqaror energiya ta'minoti, ichki transport yo'llari hamda axborot-kommunikatsiya tizimlari muhim omillar sifatida xizmat qiladi. Shu bois hududiy infratuzilmani kompleks modernizatsiya qilish investitsion jozibadorlikni oshirishning ustuvor va istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Shu bois sanoat zonalarini investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun qulay bo'lgan zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlash maqsadida davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar, jamg'armalar hamda xususiy-davlat sherikchiligi mexanizmlari orqali zarur moliyaviy mablag'larni yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyat hududida infratuzilmaning rivojlanish darajasini yanada oshirish, shuningdek, respublikaning boshqa hududlarida ham ushbu yo'nalishda tizimli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish investitsion faollikni

sezilarli darajada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv sanoat zonalarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan boshlang'ich infratuzilma xarajatlarini kamaytirishga imkon yaratadi. Chunki infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan sharoitda investorlar ishlab chiqarish faoliyatini boshlashdan oldin elektr tarmoqlari, yo'l, suv yoki gaz ta'minoti kabi tizimlarni mustaqil ravishda barpo etishga majbur bo'ladilar. Bu esa loyiha qiymatining oshishiga, investitsiya qaytish muddatining uzayishiga hamda iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Davlat tomonidan infratuzilmaga mablag' ajratilishi yoki zarur hollarda infratuzilmaviy investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi natijasida investorlar uchun yanada qulay biznes muhiti shakllanadi. Natijada ishlab chiqarish obyektlarini qurish va ishga tushirish muddati qisqaradi, loyiha qiymatida infratuzilma xarajatlarining ulushi kamayadi, investorlarning hududiy sanoat zonalariga bo'lgan qiziqishi ortadi hamda ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish sur'atlari tezlashadi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yakunlariga kelib umumiy sanoat zonalarini maydonlarining atigi 55–60 foizi to'liq infratuzilma bilan ta'minlangan bo'lib, Jizzax, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlarining ayrim hududlarida aynan shu omil sababli investitsiya loyihalarini amalga oshirish muddatlari uzaygan [4].

Sirdaryo viloyati tumanlarining 2019–2023-yillardagi gaz va kanalizatsiya tizimlari bilan ta'minlanganlik darajasi ham hududiy infratuzilmani yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Jumladan, Boyovut (50,1%), Sayxunobod (31,8%) hamda Oqoltin (42,7%) tumanlarida gaz tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari mavjud bo'lib, Guliston, Yangiyer, Shirin shaharlari hamda Xovos tumanida infratuzilma nisbatan rivojlanganligi kuzatiladi. Shuningdek, kanalizatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish va kengaytirish hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi [4].

Bundan tashqari, hududning toza ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi (2023-yil yakunlariga ko'ra viloyatda 85,7%), kommunikatsiya tizimlarining rivojlanganligi, ijtimoiy xizmatlar sifati, ta'lim muassasalarining zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlik darajasi, aholining o'rtacha daromadlari hamda savodxonlik darajasi kabi omillar ham hududning investitsiyaviy jozibadorligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtayi nazardan, hududlarda barpo etilgan sanoat zonalarini investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirish uchun kamida 75 foiz darajada zarur muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlashga qaratilgan moliyaviy resurslarni ajratish, shuningdek, zarur hollarda alohida infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini amalga oshirish mexanizmini qo'llash orqali investitsiya loyihalarini ishga tushirish samaradorligini o'rtacha 35 foizga oshirish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

Yuqorida qayd etilgan omillar hududlarda barpo etilgan sanoat zonalarini investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun kamida 75 foiz darajada infratuzilma bilan ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Shu bois ushbu maqsadlar uchun zarur moliyaviy mablag'larni ajratish hamda infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini amalga oshirish mexanizmlarini keng qo'llash investitsiya loyihalarini ishga tushirish samaradorligini 35 foizgacha oshirish imkonini beradi.

Investitsiyalar hajmining oshishiga nafaqat mavjud muammolarni bartaraf etish, balki amaldagi imtiyozlar hamda preferensiyalarni yanada takomillashtirish orqali ham erishish mumkin.

Xorijiy davlatlar tomonidan investorlarga yaratilayotgan imkoniyatlarni o'rganish natijalari davlatimizda ham qo'shimcha investitsion rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, Germaniya, Fransiya, Xitoy hamda Buyuk Britaniya tajribalaridan kelib chiqib, investorlar uchun ijara haqi va yer solig'ini birlashtirgan yagona to'lov tizimini joriy etish investitsiya muhitini yaxshilash, biznes subyektlarining davlat institutlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash hamda hududlarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur tizimni samarali joriy etish uchun huquqiy-me'yoriy asoslarni hamda ijro mexanizmlarini puxta ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiyalar hajmini oshirishda qo'llanishi mumkin bo'lgan muhim moliyaviy mexanizmlardan yana biri subsidiyalar ajratish tizimi hisoblanadi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning sohalar bo'yicha tarkibi tahlil qilinganda, investitsiyalarning asosiy qismi energetika hamda qurilish sohalariga yo'naltirilganligi kuzatiladi. Jumladan, 2023-yil yakunlariga ko'ra, elektr va gaz ta'minoti bilan bog'liq investitsiya loyihalariga jami investitsiyalar hajmining 51,2 foizi, qayta ishlash sanoati loyihalariga esa 31,9 foizi yo'naltirilgan.

Shu bilan birga, xizmatlar sohasi va turizm yo'nalishlarining investitsion salohiyati ham yuqori hisoblanadi. Chet ellik fuqarolarning mamlakatimizga bo'lgan qiziqishining ortib borishi ichki va tashqi turizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratmoqda. Turizm sohasining rivojlanishi yalpi hududiy mahsulot hajmining oshishiga, xizmatlar bozori kengayishiga hamda aholi turmush darajasining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Tashrif buyuruvchilarni zamonaviy turar joylar, umumiy ovqatlanish maskanlari va sifatli xizmatlar bilan ta'minlash ushbu sohaga investitsiyalarni yanada ko'paytirish zarurligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, xizmatlar sohasiga investitsiyalar yo'naltirilishi natijasida xorijiy valyuta tushumlari hajmi ortadi, mahalliy aholining bandlik darajasi oshadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi hamda iqtisodiy faollik kuchayadi.



Natijada aholi daromadlari va turmush sifati yaxshilanadi.

Xizmatlar sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlaridan biri investitsiya hajmiga proporsional ravishda subsidiyalar ajratish tizimini joriy etish hisoblanadi. Bunda davlat tomonidan ajratiladigan subsidiya miqdori investitsiya loyihasining umumiy qiymatiga bog'liq bo'ladi. Mazkur mexanizm investorlarning moliyaviy yukini kamaytirib, xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish hamda ularning faoliyatini kengaytirishga qo'shimcha rag'bat yaratadi [5].

Iqtisodiy nazariya va xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan beriladigan subsidiyalar hamda moliyaviy rag'batlar investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Investitsiya xarajatlarning bir qismini qoplash hisobiga loyiha rentabelligi ortadi, kapital qo'yilmalarning qaytish muddati qisqaradi hamda investorlarning xizmatlar sohasiga bo'lgan qiziqishi kuchayadi. Natijada investitsiyalarning umumiy hajmi ortib, xizmatlar bozorida yangi korxonalar tashkil etiladi.

Amaliy hisob-kitoblarga ko'ra, investitsiya hajmiga proporsional subsidiyalar ajratish mexanizmini qo'llash xizmatlar sohasidagi investitsiya loyihalarining qaytuv darajasini o'rtacha 15 foizga oshirish imkonini beradi. Bunga investitsiya xarajatlarning kamayishi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish quvvatlarining tezroq ishga tushirilishi hamda bozor talabining kengayishi sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, xizmatlar sektorining rivojlanishi natijasida yangi biznes subyektlari tashkil etilib, ular tomonidan to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i, aylanma soliqlari hamda ijtimoiy to'lovlar hajmi ortadi. Mazkur jarayon o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiy faollikning kengayishi orqali soliq tushumlarini taxminan 20 foizga oshirish imkonini yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududlarda barpo etilgan sanoat zonalarini investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun kamida 75 foiz darajada infratuzilma bilan ta'minlash maqsadida zarur mablag'larni ajratish hamda infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali investitsiya loyihalarini ishga tushirish samaradorligini 35 foizga oshirish imkoniyati mavjud.

Hududiy investitsiyaviy salohiyatni oshirish maqsadida Sayxunobod tumani "Farovon" mahallasidagi 20 gektar foydalanilmayotgan yer maydonlari negizida kichik sanoat zonalarini barpo etish yer resurslaridan foydalanish samaradorligini 30 foizga oshirish hamda mahalliy byudjet daromadlarini 22 foizga ko'paytirishga xizmat qiladi.

Xizmatlar sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadida investitsiya hajmiga proporsional ravishda subsidiyalar ajratish mexanizmini joriy etish investitsiyalarning qaytuv darajasini o'rtacha 15 foizga oshirish, shuningdek, o'rta muddatli istiqbolda soliq tushumlarini 20 foizga ko'paytirish imkonini beradi.

Hududlar iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish amaliyotini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yer uchastkalaridan foydalanishda ijara haqi hamda yer solig'i bo'yicha to'lovlarni muvofiqlashtiruvchi yagona to'lov tizimini joriy etish investitsiya muhitini yaxshilash va investorlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gulizahro, T., Nigora, S., Dilafruz, A. va Azamat, Z. (2022). Qishloq xo'jaligida agrasanoat va mustaqil sanoat tarmoqlarining tuzilmasi va uni belgilovchi omillar. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(12), 203–206.
2. Alimova, D. (2025, November). Foreign Direct Investment (FDI) and Its Impact on Macroeconomic Stability. In International Conference on Business & Management (Vol. 1, No. 2, pp. 7–9).
3. Alimova, D. Z. Investitsiyalarning kirib kelishiga to'sqinlik qiluvchi muammolarni bartaraf etish yo'llari. Green Economy and Development, 3(11), 570–667.
4. Sirdaryo viloyatining statistik axborotnomasi. 2019-yil yanvar–dekabr. – Guliston, 2020-yil. – 46-bet.
5. Margeirsson, O. (2015). Foreign Direct Investment: A Focused Literature Review. Binzagr Institute for Sustainable Prosperity, 1.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – lex.uz. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF–5780-son Farmoni. "Xususiy mulkni himoya qilish va investorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – lex.uz. <https://lex.uz/docs/-4473481>
8. Dunning, J. H. (1993). Multinational Enterprises and the Global Economy. – Wokingham: Addison-Wesley Publishing Company.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)